

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 109 (1170), 2024-yil 4-iyun, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



TURIZM INFRATUZILMASINI YAXSHILASH BO‘YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 3-iyun kuni hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Dunyoda iqtisodiy vaziyat qiyinlashgan hozirgi sharoitda ko‘proq ish o‘rni yaratadigan, investitsiya va eksportni ko‘paytiradigan sohalarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Turizm bunday salohiyat katta. Bu sohaga yo‘naltiriladigan har bir dollar kelgusida 3-4 barobar daromad keltiradi. Har bir yangi ish o‘rni boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyi hosil qiladi.

Mamlakatimizda tarixiy, madaniy va xushmanzara go‘shalar ko‘p. Ularning negizida turizm maskanlari, mehmonxonalar barpo etildi. Tartib-taomillar soddalashtirilib, sayyohlik biznesiga qulaylik yaratildi. Sayyohlar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida turizm politsiyasi tashkil etildi.

O‘tgan yil oktabrda Samarqandda bo‘lgan Butunjahon turizm tashkiloti forumi doirasida 2 milliard 300 million dollarlik investitsiyaviy kelishuvlarga erishilgan edi. Ular orasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi maskanlar barpo etishga qaratilgan loyihalar ko‘p.

Jumladan, xorijiy investorlar tomonidan Shahrisabz tumani G‘elon va Sarchashma qishloqlari orasida 3 ming gektarli tog‘-chang‘i majmuasi tashkil qilish boshlandi. Miraki qishlog‘i bo‘yicha ham master reja ishlab chiqilmoqda.

Bu tumanning tarixi ham, tabiati ham diqqatga sazovor. Qolaversa, Shahrisabz shahri Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining “2024-yildagi turizm poytaxti”, deb e‘lon qilingan.

Shu bois, u yerda turizmni rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar belgilandi. Birinchi galda Shahrisabz shahri va Shahrisabz tumanida turizm klasteri tashkil etiladi. 33 kilometrli Hisorak — G‘elon va Hisorak — Sarchashma yo‘li kengaytirilib, ta‘mirlanadi. Chiroqchi — Sho‘rquduq avtomobil yo‘li yaxshilanib,

Samarqanddan Shahrisabzga qatnov vaqti qisqaradi.

G‘elondan o‘tuvchi Oqsu daryosida quvvati 24 megavattli 3 tagidroelektrostantsiya ishga tushiriladi. Natijada turizm klasterida elektrdan muammo bo‘lmaydi. Shahrisabz turizm texnikumida Shveysariya dasturi asosida yiliga 100 nafar mutaxassis tayyorlanadi.

Bunday ishlarni Ohangaron, Urgut, Nurota, Yangiqo‘rg‘on, Pop, Chortoq, Boysun, Sariosiyo, Baxmal, Farg‘ona kabi turizm salohiyati yuqori 20 ta tumanda ham qilish mumkinligi ta‘kidlandi. Mutasaddilarga xorijiy konsultantlarni jalb etgan holda bu borada master reja ishlab chiqish topshirildi.

Ma‘lumki, yaqinda “Boysun bahori” xalqaro etno-festivali bo‘lib o‘tdi. Bibishirin mahallasida 6 million dollarlik 4 yulduzli mehmonxona, amfiteatr va o‘tovlar qurildi. Ko‘ngilochar shoular o‘tkazildi. Natijada Surxondaryoga sayyohlar kelishi 4 karra ko‘paydi.

Umuman, yoshlarning ekstremal turizmga qiziqishi yildan yilga oshyapti. Bu yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha dastur qabul qilish vazifasi qo‘yildi.

Yoz kunlarida akvopark va basseynlarga talab oshishi tabiiy. Sohaga ajratilgan mablag‘lar doirasida mehmonxonalarda basseynlar qurilmoqda. Lekin hududlarda turistlarni o‘ziga tortadigan zamonaviy akvoparklar ko‘p.

Tabiiy ko‘llar atrofidagi turizm imkoniyatlari ham ishga solinmayapti. Masalan, Mirishkor tumanidagi Sechanko‘l va Achinko‘l bo‘yida birorta dam olish maskani yo‘q. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ovchilik va ekoturizm uchun juda qulay.

Shulardan kelib chiqib, akvoparklar qurish hamda ko‘llar bo‘yida loyihalar qilish uchun yerlar auktionsiga chiqarilishi belgilandi.

Pandemiyadan keyin tibbiyot va sog‘lomlashtirish turizmiga talab kuchaygan. Yurtimizdagi sanatoriya va tibbiy muassasalarda o‘tgan yili 60 mingdan ziyod xorijiy turist davolangan. Oxirgi besh yilda xususiy klinikalar ko‘paygani bilan atigi ikkita xalqaro sertifikatga ega. Albatta, bular juda kam.

Chunki bizda tibbiyot va sog‘lomlashtirish turizmni uyg‘unlikda rivojlantirish bo‘yicha yaxlit yondashuv yo‘q. Aslida, tibbiy turizmning o‘zidan yiliga 300 million dollar eksport qilish mumkin.

Shu bois, Janubiy Koreya, Turkiya va Hindiston tajribasi asosida “Tibbiy xizmatlar mehmondo‘stligi” dasturi boshlanishi e‘lon qilindi.

Endi xususiy klinikalarning xalqaro akkreditatsiyadan o‘tish, xorijiy ko‘rgazmada qatnashish xarajati budjetdan qoplanadi. Klinikalarga kelgan chet elliklar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i qaytarib beriladi. Xorijga borib, targ‘ibot-diagnostika xizmatini ko‘rsatgan shifokorlarning transport va yashash xarajatlari to‘lab beriladi.

Shu maqsadda shifoxona va sanatoriylarni xalqaro sertifikatlash, malakali menejerlarni jalb etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

An‘anaviy festivallarning doimiy aniq sanalarini belgilash, chegaradan o‘tishni yanada soddalashtirish muhimligi qayd etildi.

Turizm rivojiga xalal berayotgan yana bir muammo transport bilan bog‘liq. Chet ellarda turoperatorlar chiptalarni kamida olti oy oldin sotib oladi, shuning uchun “sayohat to‘plami” arzon. Bizda esa samolyot va poyezdga chipta olish qiyin, bir-ikki oy qolganda topilmaydi ham.

Shu bois, Transport vazirligiga xalqaro reyslarni ko‘paytirish, barcha qatnovlar haqida ma‘lumot va chipta olish imkonini

beradigan yagona onlayn platformani ishga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Prezident mamlakatimiz turizm salohiyatini to‘liq ko‘rsatuvchi global targ‘ibot kampaniyasini yo‘lga qo‘yish zarurligini ta‘kidlab, qator tashabbuslarni bayon qildi.

“Milliy turizm brendi”ga kontent yaratish uchun tanlov o‘tkaziladi. Bu yil Toshkentda, kelgusi yilda Xivada xalqaro gastronomik festivallar tashkil etilib, 300 dan ziyod milliy taomlarimiz targ‘ib qilinadi. “Elektron-iviza” tizimi yanada takomillashtirilib, mobil ilovasi ham ishga tushiriladi.

Targ‘ibotda televideniye bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan ham keng foydalaniladi. Auditoriyasi katta chet ellik blogerlar uchun info-turlar tashkil qilinadi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari sohadagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqot qildi. Ularning muammolari va takliflaridan kelib chiqib, turizm xizmatlarini eksport-oidi moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yish, turoperatorlarga qo‘shilgan qiymat solig‘ini subsidiya sifatida qaytarish muddatini uzaytirish, turizm geografiasini kengaytirish, milliy mehmonxona brendlarini yaratish, o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlash va xorijda malakasini oshirish kabi ko‘plab takliflar bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Prezidentimiz turizmni rivojlantirish bo‘yicha jamoatchilik kengashi tuzishni taklif qildi. Soha vakillari va tadbirkorlar buni mamnuniyat bilan qo‘llab-quvvatladi. Mutasaddilar bu yil 11 million xorijiy sayyohni jalb etish hamda turizm eksportini 2,5 milliard dollarga yetkazish imkonini borligini aytib, rejalarini yuzasidan axborot berdi.

O‘ZA

Munosabat



BUXORO YANA DUNYO ILM-FAN MARKAZIGA AYLANMOQDA

Prezidentimizning xalq hayoti, hududlar iqtisodiyoti bilan tanishish maqsadida shu yil 31-may — 1-iyun kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi islohotlarning sur‘atini yana bir bor namoyish qildi. Tashrif davomida turli kasb, soha vakillari bildirgan samimiy fikrlar yangilanishlar samarasiz, xalqimizni rozi qilishga qaratilgan sa‘y-harakatlar, tashabbuslarning o‘ziga xos aks sadosi bo‘ldi.

Barakaning asosi

Tizimni rivojlantirishga qaratilayotgan mutasill e‘tibor tufayli bugun mahalla xalqimizning dard-u tashvishini eshitib, hal qiladigan islohotlar markaziga, ma‘naviyat va tarbiya maskaniga aylanmoqda. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla

institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan har bir mahallada “yettilik” tashkil etildi.

Davomi 2-beta

Yangicha yondashuvlar

Jahon tajribasida universitetlar oldiga sifatli ta‘lim berish va natijali tadqiqotlar olib borish kabi ikki asosiy maqsad qo‘yilgan. Ammo zamonaviy universitetlar bu bilan chegaralanib qolmay, uchinchi muhim maqsadni ham ilgari suradi.

UCHINCHI MAQSAD

yo‘xud oliygohlar jamiyat kelajagini qanday shakllantiradi?

Bu maqsad universitetlar ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishda jamiyatni harakatlantiruvchi kuch, drayver bo‘lishi, jamiyatning texnologik va gumanitar rivojiga munosib hissa qo‘shishi, bozor talablarini o‘rgangan holda o‘zining innovatsion potentsialidan kelib chiqib, nafaqat mamlakatda, balki butun dunyoda muayyan muammolarga yechimlar taklif etishi, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish strategiyalarini ishlab chiqishi bilan ifodalanadi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi tub islohotlarni boshdan kechirdi va sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida tizimni rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Milliy ta‘lim tizimimiz, yuqorida ta‘kidlaganimiz — uchinchi maqsad strategik yo‘nalishi tufayli muhim o‘zgarishlarga yuz tutdi. Ushbu konsepsiya sabab o‘qitish va tadqiqotlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Davomi 5-beta



SHAMOL SHUNCHAKI O‘TIB KETMAYDI 4

Najot — professionallik, MAS‘ULLIK VA SHAYLIKDA

Buyuk o‘zbek yo‘li

Bugungi o‘zgarishlar, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar, jahon xalqlari orasida shakllangan azaliy aloqalarning hozirgi transformatsiyasi, jarayonlar shiddati har qanday siyosatchi, ekspertlarning hayratini oshirmoqda, yagona, to‘g‘ri xulosa chiqarishni yanada qiyinlashtirmoqda. Bir tomondan qarasang, dunyoning globallashuvi insoniyat yashab turgan zaminni kengaytirib yuborgandek bo‘ladi, boshqa tarafdin nazar salsak, bu dunyo yanada torayib qolganek.

Kengayishining sababi barchaga ayon: insoniyatning taqdiri endi alohida olingan bir davlat yoki turkum davlatlar siyosatiga bog‘liq emas. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari tinchligi, aholisi turmush darajasi-yu xotirjamligi dunyoning deyarli barcha mintaqalaridagi mamlakatlar siyosati, iqtisodiyotiga bevosita bog‘liq. Dunyoning kengayib borayotganini shu ma‘noda tushunish mumkin.

Biz yashab turgan kurrai zaminning yanada torayib borayotganini esa jahon hamjamiyatining tobora bir-biriga yaqinlashib borishi, dunyo mamlakatlari va xalqlarining azaliy qadriyatlar — tinchlik, xotirjamlik, o‘zaro hamkorlik borasida yanada jipslashayotgani, tinchliksevarlik, insonparvarlik g‘oyalari ostida yagona oila g‘oyalarning asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, shakllanib borayotganida ko‘rish mumkin.

Mazkur holatlar barcha davlatlar va xalqlar taqdirida hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Bu holni biz joriy yil 26-27-maydagi O‘zbekiston va Rossiya muzokaralari misolida ham kuzatishimiz



mumkin. Uchrashuvda har ikki davlat o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi. Savdo-iqtisodiy hamkorlikning muttasil ravishda o‘sb borayotgani qayd etildi. O‘zaro tovar ayirboshlash va Rossiyadan investitsiyalar hajmi ko‘payayotgani, sanoat kooperatsiyasi rivojlanayotgani mamnuniyat bilan ta‘kidlandi. Ayniqsa, mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi shakli — hududlar hamkorligining to‘la ma‘no-mazmunga ega bo‘lib borayotgani bunday aloqalarni real voqealikka aylantirishning kafolati bo‘lmoqda.

Keyingi paytlarda mazkur hamkorlik, uning har ikki davlat va mamlakatlar xalqlariga beradigan imkoniyat-u imtiyozlari haqida ko‘p yozildi, fikrlar bildirildi. Shu o‘rinda bunday hamkorlik nafaqat O‘zbekistonning Rossiya bilan, shuningdek, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan boshqa bir masala xususida alohida to‘xtalish lozimligini sezib turibmiz.

Bu ana shu hamkorlikni amalga oshiruvchi rahbarlar, ayniqsa, ko‘p ming sonli mutaxassis-kadrlar salohiyati, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari sifati, xalq tilida aytadigan bo‘lsak, “ishning ko‘zini bilish” bilan bog‘liqdir. Darhaqiqat, har qanday

ishning sifati, odamlar uchun foydalilik darajasi mutaxassisning professionalligiga bog‘liq.

Professionallikni biror kasb asoslari va mahoratini egallash, mehnat madaniyati, mezonlari va tamoyillari majmuyini namoyon qilishdan iborat holat sifatida baholash mumkin. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalaridagi har qanday islohot taqdiri ham shaxsning professionallik darajasiga bog‘liq. Bu, ayniqsa, mamlakat va millatning o‘z taraqqiyoti mavjud bosqichdan yangi rivojlanish yo‘liga o‘tadigan paytlarda juda zarur bo‘lgan masaladir.

Davomi 3-beta



Munosabat

BUXORO YANA DUNYO ILM-FAN MARKAZIGA AYLANMOQDA



“Mening bog'im” ko'rsatuvida 13 marta chiqish qildi. Telekanallarda “Limonchilik sirlari” nomi bilan uning 39 ta mualliflik ko'rsatuvini namoyish etildi. Bugun Nusrat aka sitrus meva yetishtirish bo'yicha mamlakatimizda peshqadamligni egallab turibdi.

Izlagan imkon toparkan. Nusrat aka qishda gazsiz, yoqilg'isiz dala issiqxonasida hosil olish tajribasini o'zlashtirdi. Buning uchun mahalliy sharoit va imkoniyatlardan foydalandi. Uning metodi nafaqat o'zbekistonlik, balki dunyo fermerlarini qiziqitirib qo'yd. Yaqinda unga Polshadan qo'ng'iroq qilib, “Polshaga kelib, limonchilikni rivojlantirib bering”, deyishdi. Nusrat aka “Rahmat, uzr. Men avval o'z

biz to'xtamaymiz. Buxoroning har bir qarich yeridan baraka undiramiz.

Ipak qog'ozga xorijda talab yuqori

Buxoro — hunarmandlar yurti. Bugun viloyatda 6,5 mingdan ortiq hunarmand bor. Ular 15 mingdan ziyod yoshga o'z hunari sirlarini o'rgatib kelmoqda.

Asrlar davomida buxorolik hunarmandlarning mahsulotlari jahonni kezbir yurdi. Ammo ularning o'zi Buxorodan chiqmay, jahonni ko'rmay o'tdi. Mana bugun hunarmandlar eng nufuzli ko'rgazmalarda qatnashib, dunyo kezmog'ida. Birgina misol: hunarmand, miniatyurachi-rassom, “Usta Davron miniatyura markazi” rahbari Davron Toshv 10 dan ortiq mamlakatda shaxsiy ko'rgazmasini tashkil etdi.

Hunarmandlarga ko'plab imtiyozlar berilyapti, subsidiyalar ajratilyapti, hunarmandchilik markazlari qurilyapti. Buxoro “Zardo'zlik va zargarlik”, “Ipak va ziravorlar” kabi xalqaro festivallarga mezbonlik qilmoqda. 2024-yilda o'tkazilgan “Zardo'zlik va zargarlik” festivaliga 60 dan ortiq davlatdan 300 ga yaqin hunarmand keldi.

— Men rahbarlik qilayotgan markaz Prezidentimizning hunarmandlikni yanada rivojlantirish to'g'risidagi farmoni asosida 2019-yili ish boshladi. Buxoroda 100-yillar davomida

Hozir Peshku va Jondor tumanlaridagi kasb-hunar maktablarida yoshlarga issiqxona va limonariya bo'yicha bilim va tajribasini o'rgatib kelyapti. Yurtimizning bir necha tumanidagi hamkasblariga 20 gektarga yetadigan limon ko'chatlari yetkazib berdi. Shogirdlari ko'p, hozirgacha 1500 ga yaqin fermer va tomorqachiga ish o'rgatdi.

Muhammadjon QURONOV, pedagogika fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Mahalla o'z puli, byudjetga ega bo'ldi, har bir ko'chaning drayveri aniqlandi. Bu yangiliklar mahallalarni ishisizlikdan xoli hududga aylantirdi. Jumladan, o'tgan yili Buxoro viloyatining yuzlab mahallasida birorta jinoyat sodir etilmadi.

Xo'sh, bunga qanday erishilyapti?

Prezidentimiz da'vati bilan bugun hamma tashkilot rahbarlari mahallaga boryapti. Oldinlari bitta kishini ishli qilishga qiynalgan mahalla bugun kredit, subsidiya bera boshladi. Odamlarni qo'llab-quvvatlab, o'zini o'zi band qilishiga ko'maklashyapti. Xorijda yurganlar bilan gaplashyapti, dardini eshitib, darmon topyapti. Oilasi bag'riga qaytarib, xorijdagidan ko'proq daromad topish mumkinligini ko'rsatyapti. Masalan, joriy yilning shu kumiga qadar Qorovulbozor tumani “Bo'zachi” mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi 27 migrant oilasiga qaytarildi. Bandaligi ta'minlandi.

— Buxoro bugun har tomonlama o'zgarayapti. Buxoroliklarning orzusi ro'yobga chiqyapti. Bundan biz juda-juda minnatdormiz, — deydi mehnat faxriysi, G'ijduvon tumanidagi Qorabog' mahallasi faoli Davlat ota O'rinov. — Dunyo alg'ov-dalg'ov bo'lib turgan pallada Prezidentimiz O'zbekistonimizni qarorqadagi ko'zday avaylab turibdi. Muqaddas kitoblarda “Barakaning asosi sabr va shukrda”, deyiladi. Xalqimiz sabr va shukrni mahkam ushlab, yanada jips bo'lib harakat qilsa, Yaratgan yurtimizga barakasini beraveradi.



Oliy ta'limga qamrov 17 foiz oshdi

Buxoro azaldan ilm-fan markazi bo'lib kelgan. Keyingi yillarda mana shu shuhrati jadal tiklanyapti. Bu shuhratning drayveri nima? Intilganini qo'llab-quvvatlash, rag'bat.

Maktablarda yangicha ta'lim muhiti yaratildi. Konstutitsiyamizda, “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi qonunda o'qituvchilarning huquqiy maqomi mustahkamlab qo'yildi. Ular majburiy mehnatdan, ortiqcha qog'ozbozlikdan ozod bo'ldi. Yillar davomida biz uchun bosh og'rig'i bo'lib kelgan davomat muammosiga yechim topildi.

O'z ustida ishlagan, faol muallimlarga bir necha xil ustama berilmoqda. Eng iqtidorli, loyihalar g'olibi bo'lgan o'qituvchilar chet ellarga borib, ilg'or tajribalarni o'rganib qaytyapti.

— Bugun bir gapni ochiq aytishim kerak: shuncha yil umumta'lim maktabida ishlab, o'z fanimni bilaman, “Yil o'qituvchisi” tanlovi g'olibimam, deb yurgan ekanman. Oxirgi 3 yilda Buxoro shahridagi Prezident maktabida ishlab, bilim va tajribam ortganini, dunyoqarashim o'zgarганиni sezayman, — deydi biologiya fani o'qituvchisi Qambar Boltayeva. — Iqtidorli o'quvchilarga dars berib, o'zim ham IELTS hamda biologiya fanidan Kembrij sertifikatiga ega bo'ldim. Pedagog mehnatiga e'tibor natijasini maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga qamrovi oshganida yaqqol ko'rsak bo'ladi. Bu ko'rsatkich 4 yilda Buxoro viloyati bo'yicha 37 foizdan 54 foizga chiqdi. Jumladan, maktabimizni tugagan 24 bitiruvchining barchasi muddatidan oldin talaba bo'ldi. E'tiborlisi, ular bir necha xorijiy universitetlarga birdan qabul qilindi. Ammo 13 nafari “Yangi O'zbekiston” universitetini tanladi. Qolganlari yurtimizdagi boshqa nufuzli oliy o'quv yurtlarida davlat granti asosida o'qimoqda.

Buxoro oliy ta'lim, ilm, ma'rifat markaziga aylanmoqda. Birgina Buxoro davlat universitetida 232 doktorant tadqiqot olib boryapti. Ularning 170 nafari yoshlar. Uzoq yillar viloyatda oliy ta'lim muassasalari soni 4 ta edi. Bugun esa 12 taga yetdi. Bundan bir necha yil oldin kimdir Buxoroda 12 ta OTM bo'ladi, desa, hech kim bunga ishonmasdi.

Yoshi ulug' ustozlar, professor-o'qituvchilar avvallari mamlakatimiz poytaxtidagina ilmiy kengashlar bo'lganini eslaydi. Viloyatda yashab, poytaxtga qatnab dissertatsiya yoqlashning azobi

haqida aytishadi. Bugun esa buxorolik doktorant o'z shahrida, o'z universitetida ilmiy ishini yoqlash imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, viloyat tadqiqotchi yoshlarining dunyoga chiqishi uchun ham barcha imkoniyat bor. Hozir “El-yurt umidi” jamg'armasi granti asosida 37 buxorolik yigit-qiz xorijda o'qimoqda. Bu raqam 5 yil oldin nolga teng edi.

Sitrus mevalar bog'boni

Nusrat Sayidov peshkulik. Biznesi — bog'dorchilik, limonchilik. Tirishqoqlik va yaratilgan sharoit uni oddiy tomorqachidan limonchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligi rahbari va mulkdorga aylantirdi. Nusrat fermerning yana bir hunari bor. U biznes trenerlik ham qiladi. 2017-yilda “Peshku limonchilik ravnaqi” fermer xo'jaligini tashkil etdi. Undan so'ng “Peshku limonchilik maktabi”ga asos soldi.

Hozir Peshku va Jondor tumanlaridagi kasb-hunar maktablarida yoshlarga issiqxona va limonariya bo'yicha bilim va tajribasini o'rgatib kelyapti. Yurtimizning bir necha tumanidagi hamkasblariga 20 gektarga yetadigan limon ko'chatlari yetkazib berdi. Shogirdlari ko'p, hozirgacha 1500 ga yaqin fermer va tomorqachiga ish o'rgatdi.

Nusratdan boshqa bo'lsa, mana shu muvaffaqiyatidan qoniqib, huzur qilib yashar edi. Lekin u to'xtamadi. Ukraina, Turkiya va Isroilga borib, ilg'or tajribalarni o'rganib keldi.



xalqimga xizmat qilay. Keyin gaplashamiz”, deb bu taklifni rad etdi.

— 10 sotix yerda gazdan foydalansam, 25 million so'mlik gaz ketardi. Hozir bir so'm ham ketmayapti. 25 million so'm yonimda qolyapti. Ham gazni tejadim, ham pomidorning tanrari arzon bo'ldi. 15-maydan bozorga chiqardim. Hozirgacha 45 million so'mdan ko'proq daromad oldim, — deydi fermer. — Mahallamizda 5 mingga yaqin odam yashaydi. Ularning 100 gektardan ortiq tomorqasi bor. Shundan 57 gektarida, ya'ni 1040 ta xonadonning 950 tasida Peshku tajribasi asosida issiqxona ishlab turibdi. Ilgari bekor yotgan bebaho yer bugun egalarning daromad manbaiga aylandi. Bundan buxorolik tomorqachilar juda minnatdor. Endi

yo'qolib ketgan, qo'lda tayyorlanadigan ipak qog'ozni ishlab chiqaryapmiz. Shogirdlarim bilan ularda miniatyura san'at asarlari yaratyapmiz, — deydi Davron Toshv. — Markazimizda tut po'stlog'i, paxta va ipakdan qog'ozning 3 xilini ishlab chiqaryapmiz. 6 usta qog'oz tayyorlash va miniatyura sir-asrorini turli viloyatlardan kelgan

30 dan ziyod yoshga o'rgatmoqda. Qo'lda ishlab chiqariladigan qog'ozlarimizga xorijda talab tobora ortib boryapti. Biz bir qancha xorijiy davlatlarda mahorat darslari o'tib, o'zbek miniatyura san'ati sirlarini o'rgatib kelyapmiz. Yaratilgan sharoit, imkoniyat va imtiyozlar uchun yurtimizdagi barcha hunarmandlar chuqur minnatdorlik tuyg'usi bilan yashayapti.

Xalqaro ekspertlar fikri

XIVA SHAHRI ISLOM OLAMINING TURIZM POYTAXTI MAQOMIGA ERISHDI

Bunda O'zbekistonda kechayotgan islohotlar muhim rol o'ynadi

O'zbekistonda “Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm shahri” deb e'lon qilinishi munosabati bilan tashkil etilgan tadbirlar muvaffaqiyatli o'tdi. Xususan, Xivada Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar vakillari ishtirokidagi muvofiqlashtiruvchi qo'mitaning 9-yig'ilishi, Islom hamkorligi tashkiloti turizm vazirlari islom konferensiyasining XII sessiyasi, IHTga a'zo mamlakatlarning boy madaniy merosiga bag'ishlangan ko'rgazma, shuningdek, “Pahlavon Mahmud — Strongmen games” turniri tashkil etildi.

Tadbirlar davomida sayyohlar oqimini ko'paytirish, yangi turizm yo'nalishlarini rivojlantirishda o'zaro hamkorlik va to'siqsiz turizm imkoniyatlarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, IHT Turizm kengashiga raislik qilish vakolati O'zbekistonga o'tdi.

IHTga a'zo davlatlar turizm vazirlari yig'ilishida O'zbekiston raisligi doirasida tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlik, jumladan, “yashil” va barqaror turizm, “aqlli” turizm, sayyohlik logistikasi va boshqa yo'nalishlarda samarali loyiha va tashabbuslar amalga oshirilishiga ishonch bildirildi.

Tadbinim xorijlik ishtirokchilari “Dunyo” AAgA interv'yularida turizm vazirlarining “Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm shahri” shiori ostida bo'lib o'tgan islom konferensiyasi haqidagi fikrlarini bildirdi.

Basmah Al-Mayman, BMT Jahon sayyohlik tashkilotining (UNWTO) Yaqin Sharq bo'yicha mintaqaviy direktori:

— Islom hamkorlik tashkilotiga (IHT) a'zo davlatlar turizm vazirlarining qadimiy Xiva shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishi islom dunyosida hamkorlikni mustahkamlash va turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadbirda ko'plab ishtirokchi davlatlar uchun ustuvor yo'nalish bo'lgan barqaror turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Turizm infratuzilmasini yaxshilash va ko'rsatlayotgan xizmatlar sifatini oshirish asosiy masalalardan biri bo'ldi.

Shubhasiz, turizm sohasiga investitsiya jalb etish mavzusi ustuvor bo'ldi. Yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani yaxshilash va turizm yo'nalishlari raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalar muhim o'rin tutadi. Umid qilamanki, bu masalalar muhokamasi mamlakatlarimizning jahon sayyohlik bozorida o'rini yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishiga yordam beradi.

Madaniy va tarixiy merosni hurmat qilishga asoslangan turizm barqaror dunyoni barpo etishimiz uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin.



Mohamadu Manel Fall, BMT Jahon sayyohlik tashkilotining Senegaldagi turizmni rivojlantirish bo'yicha direktori va koordinatori:

— O'zbekistonda yana bir bor bo'lganimdan juda xursandman. O'tgan yili Samarqandga kelish nasib etgandi, bugun esa Xivadaman.

Xivaning 2024-yilda islom dunyosi turizm poytaxtiga aylinishida O'zbekistonda sayyohlik sohasida kechayotgan ko'plab islohotlar muhim rol o'ynadi. Viza tizimi soddalashtirilishi, madaniy merosni asrab-avaylash bo'yicha faol chora-tadbirlar va tarixiy shaharlarni keng ko'lamli obodonlashtirish kabi islohotlar alohida ajralib turadi.

Bu sa'y-harakatlar turizm infratuzilmasini modernizatsiyalash bilan birga Xivaning xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga, islom olamining madaniy-tarixiy boyligi timsoliga aylinishiga imkon berdi.

Rizo Geytasi, eronlik taniqli polvon, “Pahlavon Mahmud — Strongmen games” turniri g'olibi:

— Bu yil “Pahlavon Mahmud — Strongmen games” xalqaro turnirida uchinchi bor ishtirok etdim. Avval ham O'zbekistondagi ushbu turnirda ikki marta g'olib bo'lganman. Joriy musobaqada ushbu muvaffaqiyatni takrorlab, uchinchi



Rexam Samir, Misr turizm vaziri yordamchisi:

— Bu O'zbekistonga birinchi tashrifim. Safar menda katta taassurot qoldirganini ishonch bilan aytishim mumkin. Konferensiya yuqori darajada tashkil etilgan. Bu yerdagi insonlar nihoyatda samimiy va istalgan vaqtda yordam berishga tayyor.

Turizm vazirlari islom konferensiyasining 12-sessiyasi jahon turizm sanoati kelajagi bilan bog'liq qator dolzarb va muhim masalalarni muhokama qilish uchun ishtirokchilarni birlashtirgan noyob imkoniyatga aylandi. Sessiyada infratuzilmani takomillashtirish, turizm rivojida xususiy sektorning o'rni va soha xodimlarining kasbiy malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadbirda zamonaviy sharoitda turizmni barqaror va innovatsion taraqqiy ettirishning asosiy omili bo'lgan infratuzilmani raqamlashtirish muhimligi urg'ulandi.

“Turizm vazirlari islom konferensiyasining 12-sessiyasi jahon turizm sanoati kelajagi bilan bog'liq qator dolzarb va muhim masalalarni muhokama qilish uchun ishtirokchilarni birlashtirgan noyob imkoniyatga aylandi.”

sovrinimni qo'lga kiritdim. Barcha sinovlar qiyin kechdi. Og'irlik 90 va 120 kilogramm bo'lgan oq xarsanglarni marragacha olib bordik. Men ushbu vazifani 20 soniyada bajarishga muvaffaq bo'ldim.

O'zbekistonga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirmoqchiman. Xiva boy tarix va madaniyatga ega ajoyib shahar. Turnir esa eng yuqori darajada tashkil etildi. Muhit ham juda hayratlanarli. Ushbu omillar meni eng yuksak natijalar ko'rsatish va yangi g'alabalar sari ruhlantirdi.




Bugunning gapi

SHAMOL SHUNCHAKI O'TIB KETMAYDI

Dilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Tabiatning to'rt fasli bo'lganidek, o'ziga xos hodisalari ham bor. Aytaylik, shamol. U nima o'zi? Ilmiy jihatdan shamolga atmosferadagi havoning yer sirtiga nisbatan gorizontol harakati, deya ta'rif beriladi. Bu ko'proq va uzoqroq muddat dasht hamda cho'lda sodir bo'ladi. Shuningdek, usta dehqonlar shamolning ekinlar hosildorligi oshishida katta ahamiyat kasb etishini ham aytadi. Bu shamolni tutib bo'lmaganidek, tabiiy hol ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.



Lekin tabiatning ana shu tutqich bemas in'omi keyingi paytlarda tasavvur qilganimizdan ko'proq foyda keltiryapti. Bugungi rivojlangan davr, texnika va taraqqiyot asri avval xayolimizga kelmagan tuhfular ulashmoqda. Bu yerda gap shamol elektr stansiyalari haqida ketmoqda.

Aslida, shamoldan energiya olish dunyo tajribasida yangilik emas. Bunday ishlarga o'tgan va hatto undan oldingi asrlarda ham qo'l urilgani xususida ma'lumotlar bor. Faqat bugunga kelib, bu texnologiya rivojlanib, takomillashdi, talabga qarab ommalashmoqda.

Xalqaro energetika agentligi hisobotiga ko'ra, 2023-yilda qayta tiklanadigan energiyaning global quvvati 2022-yilga nisbatan 50 foiz oshgan. Bu so'nggi 20 yildagi eng yuqori o'sish ko'rsatkichidir. Yevropa, AQSH va Braziliyada qayta tiklanadigan quvvatning oshishi barcha davrdagi eng yuqori natijani qayd etgan bo'lsa-da, Xitoydagi o'sish favqulodid darajada baland bo'lgan. Xususan, o'tgan yili Xitoy butun dunyoda 2022-yilda qurilgan quyosh fotoelektr stansiyalaridan ham ko'proq quvvat ishga tushirgan, shamol elektr stansiyalarining quvvati ham 66 foiz ko'paygan.

Ekspertlar fikricha, kelgusi 5 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha bir necha muhim natijaga erishish kutilmoqda. 2025-yili qayta tiklanuvchi barcha energiya manbalari quvvati ko'mirga ishlaydigan quvvatlarni ortda qoldiradi va eng yirik elektr energiyasi manbaiga aylanadi. Shamol hamda quyosh elektr stansiyalarining har biri mos ravishda 2025-2026-yillarda atom elektr stansiyalarini ortda qoldiradi. 2028-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi global elektr energiyasi ishlab chiqarishning 42 foizdan ortig'ini tashkil qiladi. Shamol va quyosh energiyasining ulushi esa 25 foizga yetadi. 2028-yilga borib, jahon miqyosida ishga tushirilishi kutilayotgan qayta tiklanadigan yangi quvvatlarning deyarli 60 foizi Xitoy hissasiga to'g'ri keladi.

Bu masala O'zbekistonda ham dolzarb bo'lib borayotgani keyingi yillarda shamol elektr stansiyalari barpo etishga katta kuch va mablag' yo'naltirilayotganida ham ko'rinadi. Masalan, ana shunday ilk loyihaga Navoiy viloyatining Tomdi tumanida start berilgan edi. Energetika vazirligi ma'lumotiga ko'ra, qiymati 600 million dollar bo'lgan mazkur loyiha BAAning "Masdar" kompaniyasi ishtirokida amalga oshirilmoqda. 293,35 gektar maydonda o'rnatilgan 111 ta shamol turbinasidan iborat stansiya 2025-yili to'liq quvvat bilan ishlay boshlagach, bu yerda yiliga 1,8 milliard kilovatt/soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. 500 ming xonadonga uzluksiz nur yetkazib beriladi. Bundan tashqari, loyiha tufayli 540 million kub metr tabiiy gazni tejash va har yili atmosferaga 1,1 million tonna zararli chiqindi chiqishining oldi olinadi. O'tgan yili

27-dekabrda Prezidentimiz mamlakatimizning olitita hududidagi muqobil energiya ishlab chiqaruvchi stansiyalar faoliyatiga start berdi. Ulardan biri Tomdidagi shamol elektr stansiyasidir.

Shamol elektr stansiyasidan ko'pincha shamol oqimi o'rtaacha yillik tezligi yuqori bo'lgan hamda markazlashtirilgan elektr ta'minoti tarmoqlaridan uzoqda — dasht yoki cho'lda joylashgan elektr energiyasi manbai sifatida foydalaniladi. O'zbekiston bu borada yaxshi imkoniyatga ega. Mutaxassislar yurtimizdagi tanlangan hududlarda shamol aylanishi ko'rsatkichi dunyodagi shunday stansiyalarning o'rtaacha ko'rsatkichidan 1,5 barobar yuqori ekanini aniqlagan. Shu bois, oxirgi yillarda

Mamlakatimizda 2030-yilga qadar shamol elektr stansiyalari umumiy quvvatini 5000 megavattga yetkazish kutilyapti. Umumiy energetika tizimidagi "yashil" energetika manbalari quvvati esa 27 gigavattga yetadi. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, atmosferaga chiqadigan zararli chiqindilar hajmini 34 million tonnaga qisqartirish imkonini beradi.

kelajakda ushbu miqdorni 20 milliard dollarga yetkazmoqchi.

— Buning asosiy sababi O'zbekistonda xorijiy sarmoyadorlarga qaratilayotgan



mazkur yo'nalishdagi ishlar ko'lami kengaydi. Sohaga investitsiya oqimi jadallashdi. Masalan, shu kunlarda Buxoro viloyatining G'ijduvon va Peshku tumanlarida barpo etilayotgan loyihalar haqida OAVda ko'p gapirilyapti, yozilyapti, ko'rsatilyapti. Zotan, uning ko'lami va salobati shunga arziydi. Gap shundaki, Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi 1 milliard dollar miqdorida investitsiya kiritayotgan ushbu megaloyihalarning umumiy quvvati ming megavatt yoki 1 gigavattni tashkil qiladi. Bu quvvat bilan 1 millionga yaqin iste'molchini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash mumkin.

"ACWA Power" O'zbekistonga sarmoya kiritish bo'yicha yetakchi xorijiy kompaniyadir. Hozir bir milliard dollar miqdoridagi loyihalarni amalga oshirayotgan kompaniya yaqin

e'tibor, qulay va munosib ish sharoiti yaratib berilayotganida, — deydi "ACWA Power" kompaniyasining O'zbekistondagi shamol elektr stansiyalari loyihalari bo'yicha direktori Alper Karail. — O'zbekiston kompaniyamizning asosiy hamkoriga aylangani buning tasdiqi'dir. Chunki hozir hamma ko'rib, bilib turibdi: yuringiz investitsiya jalb qilish bo'yicha tobora jozibador bo'lib bormoqda. O'zbekiston an'anaviy energetikadan "yashil" energetikaga o'tish borasida katta marralarni ko'zlamoqda.

Muqobil energiya bozori kengayib boryapti. Kompaniya yo'naltirayotgan sarmoya tufayli mamlakatimiz energetika tarmog'ining ushbu yangi yo'nalishi tobora rivojlanayotgan. Ikki stansiyaning har birida 79 tadan shamol turbinasi o'rnatiladi. Loyiha ishlari har yil oldin boshlangan edi. Hozirgacha G'ijduvondagi stansiyaning o'zida 72 ta

turbina o'rnatib bo'lindi. Ish deyarli yakuniga yetgan.

Bir qarashda odam ishonishi qiyin ishlar, lekin ular bugun ro'yobga chiqmoqda. G'ijduvon va Peshkudagi loyihalar quvvati jihatidan dunyodagi eng katta shamol elektr stansiyalari sirasiga kiradi. Bitta shamol turbinasining uzunligi 100 metr, parraklari uzunligi esa 80 metrga yetadi.

Mutaxassislar fikricha, loyiha ilg'or zamonaviy texnologiyalarga asoslangan. Parraklari shamol yo'nalishiga qarab harakatlanadi. Har ikkala loyiha kelgusi yil avvalida tarmoqqa ulanadi.

Peshkudagi shamol elektr stansiyasida o'rnatilgan shamol turbinalari soni 56 taga yetdi. Bu ikki loyiha ishga tushirilishi bilan yiliga 3,6 milliard kilovatt/soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. 1 milliard kub metrdan ziyod tabiiy gaz tejaldi. Shuningdek, 582 kilometrlik elektr uzatish tarmoqlari qurilib, ikkita loyihada ishlab chiqarilgan elektr energiyasi Qorako'l podstansiyasiga ulanadi. Bu ikki shamol elektr stansiyasi O'zbekiston energetika tizimiga katta kuch-quvvat beradi.

Yana bir loyiha doirasida 2 gigavattlik shamol elektr stansiyasi Qoraqalpog'istonning Qo'ng'iro't tumanida barpo etilmoqda. Bundan tashqari, Samarqandda 1 gigavattlik, Toshkent viloyatida 200 megavattlik shamol elektr stansiyalari qurilyapti.

Mamlakatimizda 2030-yilga qadar shamol elektr stansiyalari umumiy quvvatini 5000 megavattga yetkazish kutilyapti. Umumiy energetika tizimidagi "yashil" energetika manbalari quvvati esa 27 gigavattga yetadi. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, atmosferaga chiqadigan zararli chiqindilar hajmini 34 million tonnaga qisqartirish imkonini beradi. O'zbekiston tabiati, cho'l-u dashtlarida esayotgan shamol bunga munosib hissa qo'shadi. U endi shunchaki behuda o'tib ketmaydi. Yo'l-yo'lakay nurga, hayot kuchiga aylanadi.

Nuqtayi nazar

YUKLAR JOYIGA KELMASDAN TURIB SHARTNOMA TUZILMOQDA

Abdusamat MO'MINOV,

"Temiryo'lkargo" aksiyadorlik jamiyati bosh direktori

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida mamlakatimiz hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini 16 million tonnaga yetkazish, shimoliy yo'nalishda temir yo'l orqali yuk tashish muddatlarini 40 foiz qisqartirish, yuk tashish xizmatlari hajmini 3 barobar oshirish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 10-oktabrdagi qarorida ham temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish, sog'lom raqobat muhitini yaratish, boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, yurtimizning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilab berildi. Shunga muvofiq, joriy yil fevralda "Temiryo'lkargo" aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. AJ zimmasiga yuk vagonlari va konteynerlar xo'jaligini saqlash, logistika markazlari hamda terminallari ochish kabi vazifalar yuklatilgan.

Zamon rivojlanib, barcha xizmatlar globallashib borar ekan, o'z-o'zidan yuk tashishni ham zamonaviy bosqichga olib chiqish dolzarb masalaga aylanadi. "Temiryo'lkargo" aksiyadorlik jamiyati ish boshlaganiga ko'p bo'lmadi. O'tgan vaqt mobaynida yuk tashish xizmatlari ko'rsatish uchun 200 ga yaqin

shartnoma tuzilib, 392 ming tonnadan ortiq yuk manziliga yetkazildi.

Shuningdek, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Ozarbayjon, Rossiya singari davlatlar bilan ekspeditonlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomalar imzolandi.

Hozir mamlakatimiz bo'ylab beshta — Nazarbek, Samarqand, Qarshi, Denov, Buxoro yuk terminallaridagi 2100 ga yaqin turli yuk vagoni orqali Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Dehqonobod kaliy zavodi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi kabi yirik korxonalar mahsulotlari manziliga betalafot yetkazib berilyapti.

Ushbu terminallarda yuk jo'natuvchi va qabul qiluvchilarga transport logistikasi, ekspeditonlik hamda yuk saqlash kabi xizmatlar ham ko'rsatilmoqda.

Kelajakda yuk terminallarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, zamonaviy logistika markazlariga aylantirish hamda mijozlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, kompleks xizmat ko'rsatish maqsad qilingan. Bu borada ayni paytda zarur ishlar amalga oshirilmoqda. Jahon banki tomonidan tayyorlangan Logistika samaradorligi indeksida 2023-yilda O'zbekiston 88-o'rinni egalladi. Vatanimiz 2018-yildagi hisobotga nisbatan ko'rsatkichlarini 11 pog'ona yaxshilagan. Temir yo'llarimiz xalqaro tashuvda munosib o'rin egallayotgani, yangi transport yo'laklari barpo etilayotgani mamlakatimiz va mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish, dunyo bozoriga chiqish imkoniyatlarimizni kengaytiradi.

Bugungi kunda transport-logistika xizmatlari xususida gap ketganda Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston va O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston temir yo'llariga alohida to'xtalib o'tish joiz. Negaki mazkur strategik loyihalar mintaqadagi geoiqtisodiy vaziyatni butunlay o'zgartirib, Markaziy Osiyoni Shimol va Janub, Sharq va G'arb bilan bog'laydigan global tranzit markaziga aylantiradi.

O'zbekiston — Afg'oniston — Pokistonni tutashtruvchi loyiha Yevrosiyo transport



yo'lagini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Natijada Markaziy Osiyo mamlakatlari Hind okeani portlariga chiqish imkoniga ega bo'ladi. Temir yo'l orqali tovarlar yetkazib berish muddatini 35 kundan 5 kungacha qisqartiradi. Tovarlarini yetkazib berish narxi esa kamida 40 foiz pasayadi. Loyiha 2027-yil oxirigacha yakunlanishi kutilmoqda.

Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston koridoriga bir vaqtlar ekspertlar quruqlikdagi Suvaysh kanali, deb ham ta'rif bergan. Chunki u Sharq va G'arbni eng qisqa va foydali yo'l bilan bog'lash imkonini yaratadi. Xususan, Xitoydan Janubiy Yevropaga yo'nalish 900 kilometr, ga

yuklarni yetkazib berish muddatlari esa bir haftagacha qisqartiriladi.

Bu borada "Temiryo'lkargo" aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgani ayni muddao bo'ldi. Jumladan, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston multimodal koridori orqali konteynerlar Xitoydan chegaradagi Qoshg'ar stansiyasigacha temir yo'lga, Qoshg'ardan Qirg'izistonning O'sh temir yo'l stansiyasigacha avtomobilda va O'shdan O'zbekiston, Afg'oniston va Turkmanistonning ichki stansiyalarigacha yana temir yo'lga tashilmoqda. Eng asosiysi, mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida jamiyat tomonidan talabga qarab kompleks xizmatlar

ko'rsatilyapti. Mahalliy va xalqaro temir yo'l kodlarini ta'minlash, vagon yetkazib berish, so'nggi manzilgacha yetkazish (first/last mile delivery), terminal, ortish-tushirish, deklaratsiya va boshqalar shular sirasiga kiradi. Faqatgina ushbu yo'nalish orqali jamiyat tomonidan aprel oyidan hozirgi vaqtgacha 700 dan ziyod konteyner tashuvi amalga oshirildi. Natijada 500 ming AQSH dollaridan ortiq valyuta tushumlari ta'minlandi. Bu ko'rsatkichni yil yakuniga qadar 3000 konteynerga, valyuta tushumlarini 2,5 million dollariga yetkazish reja qilingan. Qirg'iziston orqali multimodal tashuvlar rivojlanishi xalqaro darajadagi Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'l qurilishi qanchalar muhimligini anglatadi.

Jamiyat tomonidan O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya hamda O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Fors ko'rfazi davlatlari koridori orqali "temir yo'l — suv — temir yo'l" va O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston koridori orqali "temir yo'l — avto — suv" yo'nalishlarida multimodal tashuvlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Jamiyat tashkil etilganidan so'ng tadbirkorlar bilan shartnomalar onlayn tuzilyapti. Natijada mijozning vaqti ancha tejalyapti. Endi u uyidan chiqmasdan turib, yukni olib ketishga buyurtma berishi, kerakli summani ko'chirib o'tkazishi va ikki tomonlama shartnoma tuzishi mumkin. Vaholanki, ilgari bu ishga bir necha kungacha vaqt sarflanar edi. Ya'ni temir yo'l bekatiga kelib yuk jo'natish uchun shartnoma olingan, rasmiylashtirilgan, keyin banka borib pul to'langan, hujjatlarni qayta ishlash markaziga borib, pul o'tgani to'g'risida ma'lumotnomani olib, keyin yana temir yo'l bekatiga ma'lumotnomani bergan. Hozir bu ishlarim barchasi onlayn shaklda bajariladi.

Barcha tariflar narxi ko'tarilayotgan vaqtda ham xizmat ko'rsatish narxi o'zgartirishsiz qoldirildi. Bu ham mijozlar uchun yana bir yengillik.

Jamiyatimiz vagonlari bilan aprel oyida 7500 tonnadan ziyod un va bug'doy mahsulotlari olib kiritildi, yukning asosiy qismi O'zbekiston orqali tranzit yo'l bilan Afg'onistonga yetkazib berildi. Bundan tashqari, 4 ming tonnadan ziyod qurilish materiallari eksport qilindi. May oyining 25 kunligida 4500 tonna yuk tranzit orqali import qilindi, 500 ming tonnadan ortiq neft mahsuloti eksportida ishtirok etildi.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Yangicha yondashuvlar

UCHINCHI MAQSAD

yoxud oliygohlar jamiyat kelajagini qanday shakllantiradi?

Nozliya NORMURODOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
O'zbek tili va adabiyoti
universiteti prorektori,
filologiya fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston oliygohlarining maqsadi ta'lim muassasalarini ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda jamiyat va ishlab chiqarish bilan yaqinroq integratsiyalashuvga yo'naltirishdan iborat. Shu bois, ushbu maqsad nafaqat akademik ta'limni kengaytiradi, balki sohada yanada faol va amaliy yondashuvga o'tishni ham o'z ichiga oladi. Universitetlar tobora ko'proq texnologiyalarni qo'llash barobarida uzluksiz ta'lim va ijtimoiy hamkorlik sohasida mavqeiini mustahkamlab, ijtimoiy ehtiyojlar va milliy yuksalishga munosib hissasini qo'shmoqda.

Vaziyat va muammolar

Uchinchi maqsadning ahamiyati tobora ortib borayotganiga qaramay, O'zbekiston universitetlari hali rivojlanishning dastlabki bosqichida. Ko'pgina ta'lim muassasalari strategik rejalarga tegishli tadbirlarni endigina joriy qila boshladi. Asosiy muammolar an'anaviy akademik modellardan ijtimoiy ehtiyojlarga munosib javob berib, innovatsiyalarga yo'naltirilgan yondashuvlarga o'tishda ko'rindadi. Ya'ni soha tubdan isloh qilishga muhtoj edi va bu borada ishlar boshlandi. Hozir tizimda o'zgarishlarni amalga oshirishda ayrim qiyinchiliklar ko'zga tashlanmoqda, bu tabiiy. Faqat o'z vaqtida unga ilmiy asoslangan yechim berish zarurati bor.

2019-yil 18-oktabrda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Hujjat universitetlarning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan yaqin hamkorligiga qaratilgan uchinchi maqsadning amalga oshirishining boshlanishi bo'ldi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim qamrovini va ko'lami oshib borayotgani ta'limga jiddiy e'tibor qaratilayotgani va bu yo'ldagi islohotlar jadal davom etishini anglatadi. 2016-yilda OTMlar soni 100 tani ham tashkil etmagan. Ayni paytda 210 dan ortiq OTM faoliyat ko'rsatyapti. Ularning 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasasi. Ushbu o'sishning o'ziyoliq oliy ta'lim berish imkoniyati va uning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashda ortga qaytmas yo'l tanlaganimizni ko'rsatadi.

Ushbu muassasalar nafaqat ko'payib bormoqda, balki ular zamon talab va ehtiyojlarini qondiradigan turli innovatsion dasturlarni amaliyotga tobora kengroq joriy etyapti. Shu orqali globalizatsion dunyo talablariga moslashmoqda. Masalan, yangi texnologiyalarga yo'naltirilgan dasturlarni joriy etish va sanoat korxonalarini hamkorlik raqamli iqtisodiyot va undan tashqari muammolarni hal qilishga qodir kadrlarni tayyorlaydi. Bundan tashqari, ta'lim muassasalari soni ko'payishi ilmiy tadqiqotlar va hamkorlik salohiyatimizni oshiradi, barqaror rivojlanish hamda



innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan kuchli akademik hamjamiyatni shakllantirishga hissa qo'shadi. Ushbu jadal o'sish O'zbekistonning milliy va xalqaro miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga yuz tutganini, raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo'lidan og'ishmay borayotganini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim berishi, balki jamiyat va amaliyot bilan hamnafas bo'lishi kerak. Shu orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shishi zarur. Zamonaviy akademik tuzilmalar ko'pincha yopiq bo'lib, hamkorlik uzilib qolgan. Ilmiy ishlar va tadqiqotlar ta'lim tizimidan tashqariga chiqmaydi. Bu ularni tobora jadal taraqqiyotdan uzib qo'yadi. Qolaversa, ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish ham yetarli darajada emasligi OTMlarning yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amalda qo'llash imkoniyatlarini cheklaydi. Uchinchi maqsadning asosiy elementi shu kabi kamchiliklarga barham berish, ta'limni hayotiy taraqqiyot bilan bog'lashdir.

Ijtimoiy va gender tenglikni ta'minlash

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'z faoliyatida uchinchi maqsad tamoyillarini faol amalga oshirmoqda, shu bilan birga, barqaror rivojlanish sohasidagi global tashabbuslarni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etmoqda. Universitet xalqaro reytinglarda, ayniqsa, gender tenglik va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan ta'lim amaliyoti bo'yicha yetakchi o'rnlarni egalladi. O'tgan yili gender tenglik mezonini bo'yicha dunyoning eng yaxshi 20 ta OTMsi qatoridan joy oldi va jahon reytingida 600-o'rinni qayd etdi. Bu reytingda BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha barcha 17 ta maqsadga baholangan va ToshDO'TAU O'zbekistondagi eng yaxshi natijani ko'rsatdi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy inklyuzivligi yanada adolati jamiyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. OTMlar imkoniyati cheklanganlar bilan faol ishlab, ta'lim va iqtisodiy to'siqlarni yengib o'tishga qaratilgan dasturlarni taklif qilayapti.

Universitet BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha beshinchi maqsadiga muvofiq gender tenglikni ta'minlashga ixtisoslashgan yagona veb-sahifani ishga tushirgan bilan ham ajralib turadi. Veb-sahifa ko'ngilli ayollar va universitet talabalarini qo'llab-quvvatlash uchun

maxsus ishlab chiqilgan. Undan turli kurslar, imkoniyatlar va podkastlar joy olgan.

Ushbu platformada qizlarning akademik va kasbiy mahoratini oshiradigan, shaxsiy kamol topishi va liderlik salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan ta'lim dasturlari bor. Universitet taklif etayotgan yechimlarning dolzarbligi va samaradorligini ta'minlash uchun global va mahalliy sheriklar bilan faol hamkorlik qiladi, bu esa platformani gender tenglikni targ'ib qilish, ayollarning jamiyatdagi rolini kuchaytirishga intilayotganlar uchun qimmatli manbaga aylantiradi.

O'zbekiston OTMlari nafaqat malakali kadrlarni tayyorlaydi, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham faol hissa qo'shishi uchun ta'lim tizimini takomillashtiradi.

Shunday qilib, bu nafaqat ta'lim veb-sayti, balki barqaror va adolati jamiyat rivojiga hissa qo'shishga tayyor bo'lgan rahbar ayollarning yangi avlodini shakllantirishga yordam beradigan ijtimoiy o'zgarishlarning kuchli vositasidir.

Strategik tashabbuslar

Global muammolar fonida universitetlar jamiyatdagi transformatsion o'zgarishlarda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu strategik qayta konfiguratsiya tadbirkorlik va innovatsiyalarga yo'naltirilgan modelni qabul qilishni o'z



ichiga oladi. Bu OTMga an'anaviy usuldan tashqariga chiqish va jamoatchilikning sezilarli ta'siriga erishish imkonini beradi. Masalan, bir universitetning yetakchi mahalliy texnologiya kompaniyalari bilan hamkorligi uglerodni kamaytirish maqsadlariga faol hissa qo'shadigan barqaror energiya yechimlarini ishlab chiqishga yordam berishi mumkin. Ushbu tashabbuslar ta'lim muassasasining ilmiy mavqeiini mustahkamlashi barobarida jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shishni o'z burchi deb bilishini, global masalalarga befarq emasligini anglatadi.

Shuning o'ziyoliq ko'pgina universitetlarning innovatsion yondashuvlari o'quv jarayoni va tadqiqotlarni qanday o'zgartirishi mumkinligiga yorqin misoldir. O'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalar va texnika vositalari joriy etilishi mintaqada hayot sifatini yaxshilashga bevosita ta'sir ko'rsatadigan yangi bilim va yechimlarni yaratishga yordam beradi.

Ushbu strategik tashabbuslar nafaqat universitetning ilmiy va ta'lim imkoniyatlarini

kengaytiradi, balki akademik doira bilan sanoat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi paradigmasini shakllantiradi. Xususi sektor bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro ilmiy va ta'lim loyihalarida ishtirok etish, shuningdek, global akademik tarmoq bilan integratsiya universitetning innovatsiyalar va barqaror rivojlanish sohasida yetakchi mavqeiini mustahkamlaydi.

Strategik va innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan akademik muhitning ushbu evolyutsiyasi nafaqat hozirgi zamon talablariga javob berishga, balki universitetlarning ijtimoiy o'zgarishlar katalizatori va jamiyat barqaror rivojlanishining harakatlanitiruvchi kuchiga aylanadigan kelajakni shakllantirishga imkon beradi.

O'zbekistonning ta'lim manzarasi sezilarli o'zgarishlar va islohotlarga qaramay, o'zining uchinchi maqsadi — ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'shishda to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan qator muhim muammolarga duch kelmog'ga. Mamlakatimiz ta'lim paradigmasida muammolar va qiyinchiliklar mavjud.

Uchinchi maqsad faoliyatini birlashtirish. Mazkur maqsadning ahamiyati tobora ortib borayotganiga qaramay, uning faoliyati oliygohlarimizning strategik rejasiga qisman kiritilgan. Bu to'liq integratsiya yo'qligi, universitetlar faoliyati va keng jamoatchilik ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdan dalolat beradi.

Resurslarni taqsimlash. Moliyalashtirish cheklovli va infratuzilma yetarli emasligi uchinchi maqsad uchun muhim bo'lgan innovatsion loyihalar va jamoatchilikni jalb qilish tashabbuslarini amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Resurslarni taqsimlashda strategik yondashuv zarur bo'lib, uzoq muddatli ijtimoiy ta'sirni ilmiy yutuqlardan ustun qo'yadi.

Sanoat va akademiya o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish. Universitet natijalarini sanoat talablariga moslashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramay, ta'lim va

tadqiqot natijalari to'g'ridan to'g'ri qo'llanilishi, iqtisodiyot va jamiyat uchun foydali bo'lishini ta'minlashda sezilarli bo'shliq mavjud. Bu bo'shliq akademik tadqiqotlarning amaliy ta'sirini cheklaydi va mehnat bozorida bitiruvchilarning samaradorligini pasaytiradi.

Madaniy va tizimli inersiya. Ta'lim muassasalarida ko'pincha ijtimoiy faollik va innovatsiyalarni urg'ulaydigan yangi paradigmalarni joriy etishga qarshilik mavjud. Bu qarshilik innovatsion yoki tadbirkorlik harakatlaridan ko'ra an'anaviy akademik izlanishlarni afzal ko'radigan qarashlardan kelib chiqishi mumkin.

Ta'lim sifati. Ta'lim muassasalari soni ko'payishi bilan ta'lim sifatini saqlab qolish muhim vazifaga aylandi. Agar bu jarayon qat'iy sifat nazorati choralarini o'z ichiga qolmasa, ta'lim muassasalari miqdori tez o'sishi akademik standartlar pasayishiga olib kelishi mumkin.

Tenglik va qabul. Oliy ma'lumot olish imkoniyatini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramay, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarga va chekka hududlar aholisi uchun ta'lim imkoniyatlaridagi farqlar saqlanib qolmoqda. Uchinchi maqsadni bajarish uchun oliy ta'limga qabul qilishda sifat va tenglik ustuvor bo'lishi muhim.

Raqamli transformatsiya. Raqamlashtirish bo'yicha jiddiy sa'y-harakatlarga qaramay, barcha universitetlarda uni amaliyotga tatbiq etish ko'rsatkichi barobar emas. Raqamli imkoniyatlardagi farqlar talabalar va ta'lim muassasalari o'rtasida bo'shliqlarni keltirib chiqarishi mumkin, bu o'quv jarayonining bir xilligi va kirish imkoniyatiga ta'sir qiladi.

Barqarorlik amaliyoti. Barqaror amaliyotni joriy qilish global ta'lim kun tartibi uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, barqaror amaliyotning O'zbekiston oliygohlarining barcha operatsion va ta'lim tuzilmalariga integratsiyalashuvi davom etmoqda, bu esa har tomonlama strategik rejalashtirishni va uni aniq amalga oshirishni talab qiladi.

Ushbu muammolar O'zbekistonda oliy ta'limning uchinchi maqsadini bajarishda ko'rinadigan murakkab va ko'p qirrali masalalarni kun tartibiga qo'yadi. Ularni hal qilish barcha manfaatdor tomonlar, shu jumladan, davlat idoralari, ta'lim muassasalari, sanoatdagi sheriklar va jamoatchilikning birgalikdagi harakati orqali amalga oshadi. Bu hamkorlik asnosida O'zbekiston OTMlari nafaqat malakali kadrlarni tayyorlaydi, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham faol hissa qo'shishi uchun ta'lim tizimini takomillashtiradi.

Tahlillar soha takomillashuvi uchun kerak

O'zbekistondagi oliy ta'limning uchinchi maqsadi nafaqat akademik ta'limni kengaytirish, balki oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy taraqqiyot va iqtisodiy innovatsiyalar asosiy ishtirokchisi sifatidagi o'rmini qayta ko'rib chiqishdir. Bu maqsad ilmiy innovatsiyalar va spin-off kompaniyalar yaratishdan tashqari, universitetlarning ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmagan transformatsion salohiyatini nazarda tutadi.

Ijtimoiy integratsiyani yaxshilash, mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlanishning global maqsadlarini ilgari surish bo'yicha universitetlar faoliyatiga yangi vazifalarni kiritish uchinchi maqsad dolzarbligini oshiradi.

Shu bois, yanada faol, innovatsion va ijtimoiy mas'uliyatli akademik hamjamiyatni shakllantirish uchun universitetlarning strategiyalari va operatsiyalarida doimiy tuzatishlar talab etiladi. Bu nafaqat ilg'or texnologiyalarni joriy etish va yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni, balki ijtimoiy loyihalar va dasturlar orqali jamiyatda faol ishtirok etishni ham nazarda tutadi.

Ushbu tahlil uchinchi maqsadning O'zbekiston ta'lim manzarasi, uning sohalari bilan integratsiyasini o'rganish va takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maqsad nafaqat bugungi global muammolarga javob beradigan, balki ta'lim, tadqiqot va jamoat faoliyati orqali barqaror kelajakning kafolati bo'lgan yuqori ilmiy salohiyatli kadrlar sinfini shakllantirishdir.

Zamondosh

CHINAKAM BILIM NATIJADA NAMOYON

Toshkent xalqaro Vestminster universiteti oldidan har gal o'tganimda, farzandlarim shunaqa nufuzli oliygohlarga o'z bilimni bilan kirib olsin, deb yaxshi niyat qilaman. Bu yerda o'qiyotgan talaba yoshlarga havasim keladi. Ulardan biri mazkur universitetga bundan to'rt yil avval davlat granti asosida o'qishga kirgan Ahror Saidovdir.

Ayrimlarning "Bunaqangi oliygohlarda bilimi yetmasa ham cho'ntagining kuchi yetganlar o'qiydi, bilim bilan kirish qiyin", degan gaplari asossizligini bugun Ahror singari yoshlar amalda ko'rsatyapti. Uningdek iqtidor egalari faqat bilimi, harakati bilan nom qozonyapti.

Izlanuvchan bu yigitning, ayniqsa, ta'lim tizimi islohotlarini qator xorijiy davlatlarda targ'ib qilayotgani diqqatga sazovor.

Matematika, axborot texnologiyalari, chet tildan o'tgan olimpiada va tanlovlarda muntazam g'olib bo'lib kelgan qahramonimiz "InfoUrok" xalqaro tanlovida, Lomonosov nomidagi xalqaro olimpiadada, "Codecraft" bo'yicha tashkil etilgan tanlovlarda 1-o'rinni egallagan.

Shuningdek, u uyushmagan yoshlar bilan mas'ullar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri muloqot o'rnatishga xizmat qiluvchi "Yoshlar murojaati" elektron platformasini yaratishda, joylarda

iste'dodli bolalarning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan qator loyihalarni hayotga tatbiq etishda faollik ko'rsatmoqda.

— O'tgan yil fevral oyida Ashxobod shahrida Turkmaniston yoshlarini MUN (BMT modeli) dunyosi bilan tanishtirish va ularni MUN tarmog'iga ulash bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazdim, — deydi Ahror Saidov. — Iyul oyida AQSHning Nyu-York shahrida BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOC) tomonidan o'tkazilgan yoshlar sammitida O'zbekiston yoshlari vakili sifatida ishtirok etdim. Bu ulkan sharaf. Qaysi davlatda bo'lmay, shu narsa meni dadilikka undaydi. Chet elliklar O'zbekiston yoshlari haqida yorqin tasavvurga ega bo'lishi uchun bor kuchini

ishga solaman. Ayniqsa, loyihalarimiz xorijlik tengdoshlarimizda katta qiziqish uyg'otayotgani, hamkorlik taklif qilayotganlari, ilmi o'zbek yoshlari orasidan ko'plab do'st orttirishni niyat qilganlari menga g'urur beradi.

Ahror Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining mamlakatimiz yoshlarini qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratilgan qator loyihalarida ham faol ishtirok etib kelmog'ga.

2019-yil avgust oyida "Digital Generation Uzbekistan" xalqaro hamkorlik loyihasi tashkilotchilari tomonidan yosh veb dasturchilar, 3D modellashtrish, robototexnika, mexatronika, mobil ilova yaratish sohalarida faoliyat yuritayotgan yoshlar bilan tashkil etilgan



o'quv mashg'ulotlarida fidoyilik namunasini ko'rsatgani uchun rag'batlantirilgan.

Til bilgan el biladi. Qahramonimiz bo'sh vaqtda xorijiy tillarni o'rganadi. Hozirgacha ingliz, rus va koreys tillarini mukammal egalladi. IELTSdan 8,5 balni ko'lg'a kiritdi.

Ahror kabi tilni puxta bilgan yoshlar chet elda tahsil olib, vatanga qaytgach, orttirgan tajriba va ko'nikmasini faoliyatida keng qo'llasa, iqtisodiyotimizning barcha soha va tarmoqlarida sezilarli siljishlar bo'lishi, yangi innovatsiyalar joriy etilishi aniq. Bu xalqimiz turmush farovonligini oshirishda yoshlarning faolligi va o'rni qay darajada ekanining amaldagi ifodasi ham bo'ladi. Ahror kelgusida Buyuk Britaniyada davlat boshqaruvi va iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olib, chuqur professional bilim bilan yurtga qaytish hamda O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoriga kirishiga munosib hissa qo'shishi niyat qilgan.

Farzandlarimizning ulkan salohiyatidan unumli foydalanish katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi va vatanga sadoqatli, yorug' kelajakka daxldor yoshlar jalb qilinishi yangi marralar sari yo'l ochadi, ilg'or yondashuvlarni yuzaga chiqaradi, jamiyat hayotiga ijroiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, yigit-qizlar mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarga daxldorlikni his qilsa va ularda faol qatnashsa, islohotlar kutilgan muvaffaqiyatlarni beradi.

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Millat fidoyilari

Shu kunlarda yurtimiz kinoteatrlarida “Bahodir Yalangto'sh” filmi namoyish etilib, tomoshabinlar tomonidan yaxshi kutib olinmoqda. Kinotanqidchilar ham film o'zbek kinosida yangi voqelik bo'lganini ta'kidlayotir. O'zbek davlatchiligi tarixida hali to'la yuz ochmagan sahifalar sanalgan XVI-XIX asrlar uzoq yillar davomida tarix o'qirmanlariga eng qora va turg'un bir davr sifatida ko'rsatilgan va tabiiyki, hozir shunday davrlar sifatida gavdalanadi.

Bahodir Yalangto'sh kim bo'lgan?

Zero, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida yuksak darajada rivojlangan mintaqamiz qiyofasida keyingi asrlarda yuz bergan voqealar va siyosiy kurashlar bir oz mayda ko'rinib qoladi. Aslida, filmda jarayonlar aks etgan zamonlarda ham o'sha davr va jamiyatda mustahkam irdodalari davlat hukmdorlari, aqli zako, donishmand amaldorlar, yurtparvar va mard o'g'lonlar bo'lgan. Oqqan daryo oqmay qolmas ekan, Amir Temur va temuriylar davridagi muhit ham sokinlik bilan bo'lsa-da, davom etib turgan.

Har bir davr o'z qahramonlarini yaratadi

Buyuk sarkarda, davlat va jamoat arbobi Bahodir Yalangto'shni kurashlar, boshboshdoqlik, mayda siyosiy kurashlar davri katta maydonga chiqargandi. Xo'sh, Bahodir Yalangto'sh kim o'zi?

Shonli, ko'plab ulug' sarkarda va ulkan saltanatlar bunyod etgan hukmdorlarga ega davlatchilik tariximizda uning tutgan o'rni qanday?

Shu kunlarda namoyish etilayotgan kinoasarga nega bu siymo qahramon sifatida tanlandi va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda uning hayot yo'li ahamiyati nechog'liq?

Bahodir Yalangto'sh zamin sayqali Samarqandning Registon maydonidagi Sherdor va Tillakori madrasalari bunyodkori, Registon ansambli yuzaga keltirgan davlat va jamoat arbobi sifatida tanliq.

Manbalarda, jumladan, Mahmud ibn Valining 1634-1641-yillarda yaratilgan “Sirlar dengizi” (“Bahr al-asror”) asarida uning ismi Xatoy Bahodir bo'lgani haqida ma'lumot keltiriladi. Aytishlaricha, u dushmanga qarshi janglarda hech qanday sovuq taqimay, qalqon tutmay, ko'ksini ochib maydonga tushgani uchun Yalangto'sh laqabini olgan.

U 1576-yilda Nurotada dunyoga kelgan va Bahodir Yalangto'sh nomi bilan mashhur bo'ladi. Keyinchalik Ashtarxoniy davrining yirik harbiy vakili va Samarqand hokimi sifatida nom qozonadi. Nurota hokimi oilasida dunyoga kelgan bu shaxs 1626-yildan boshlab Samarqand hokimi ham bo'lgan.



Imomqulixonning ko'zi ko'r bo'lib qolganda Bahodir Yalangto'sh va boshqa amirlar Balxdan Nadr Muhammadni keltirib taxtga o'tqazgan.

Bahodir Yalangto'sh oqil, odil va yurtparvar bo'lishi qatorida mamlakatda xondan keyingi eng badavlat shaxs edi. U Buxoroda 1645-yilda Nadr Muhammadxon bilan nizolashib qoladi. Xon Yalangto'shning yaxshiligini unutadi. U xonga qarshi Xo'jandda ko'tarilgan isyoniga boshchilik qilgan. Buxorodan isyonni bostirish uchun yuborilgan Abdulaziz sultonni asir olib, Buxoroga yurish qilgan. Buxoro g'arbidagi Oqtepa mavzeida ular Abdulazizni xon deb e'lon qilib, so'ngra poytaxtni ham qamaldan qamaldan Nadr Muhammadxon qamaldan so'ng shaharni tark etishga majbur bo'ladi

Bu tasvir mustaqillik yillarida milliy valyutimizda ham aks etdi. Ayni paytgacha peshoqning ikki tomonida simmetrik tarzda aks etgan quyosh, sher va ohu timsollarini mutaxassislar turlicha sharhlagan.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, madrasa qurilishi quyosh hamal burjida turgan paytda boshlanib, arslon burjiga kirgan paytda yakuniga yetgani uchun ana shunday timsollar madrasa peshoqiga tushirilgan.

Sherdor qurib bitkazilgach, Samarqand hokimi Bahodir Yalangto'sh mavjud ikki madrasa majmua sifatida hali nomukammaldek tuyuladi. 1546-yilda hokim buyrug'i bilan uchinchi inshoot — Tillakori madrasasi qurilishi boshlanadi.

Bu madrasa qismlarida ishlangan naqshlar ustidan tilla suvi yuritilgani uchun madrasa



Bahodir Yalangto'sh Buxoro xonligining barcha harbiy amaliyotlarida faol ishtirok etgan. Jumladan, 1623-1631-yillarda Eron qo'shinlari asrlar davomida Turonning bir bo'lagi bo'lgan Balx viloyatiga bostirib kelganida viloyat hokimi Nadr Muhammadxon Bahodir Yalangto'sh boshchiligida katta qo'shin yordamga kelgan. 1640-yilda Imomqulixon Moskvaga elchilar orqali noma yo'llab, unda Rus davlatining qalmligarga qarshi kurashida Bahodir Yalangto'sh boshchiligida yovqur amirlarni va katta qo'shinni yuborishga tayyor ekanini ham bildirgan. 1642-yilda

va boburiy Shoh Jahondan yordam so'raydi. 1646-yilda Shoh Jahon Balxga kenja o'g'li Murodbaxsh boshchiligida katta qo'shin jo'natadi.

Mazkur qo'shin Balx viloyatiga kelarkan, uni himoya qilish o'rni bosib olgan. Bu ham Yalangto'shga yoqmagani. Boburiylar Balxda 2 yildan ortiq hukmronlik qilgan, biroq u yerda mustahkam o'nasha olmagani. 1648-yil yozida Abdulazizxon 200 ming kishilik qo'shin bilan Balxga yurish qilib, boburiylardan bu viloyatni qaytarib olgan, qo'shin tarkibida mohir sarkarda Bahodir Yalangto'sh boshchiligidagi askarlar bo'lgan.

tillakori, ya'ni “tilladan ishlov berilgan” deb atalgan. Bir zamonlar “Registon” — “qumloq joy” bo'lgan manzil chin ma'noda bugun dunyoga shu nomdagi muhtasham ansambli sifatida ma'lumi mashhur.

Har uchala madrasa birgalikda o'ziga xos yaxlitlikni, uyg'unlikni tashkil etadi. Madrasalar turli davrlarda qurilgan. Ulug'bek madrasasi Sherdor va Tillakoridan qariyb ikki asr oldin qurilganiga qaramay, ansambli ijodkori Bahodir Yalangto'sh zakoligi ortidan ushbu majmua bir paytda yagona me'oriy yechim asosida qurilgandek hayrat va taassurot uyg'otadi.

Bahodir Yalangto'sh 1656-yili 80 yoshida Samarqandda vafot etadi. Abu Tohirxo'janing “Samariva” asarida yozilishicha, Bahodir Yalangto'shning qabri Samarqand yaqinidagi Dahbed manzilida, Maxdumi A'zamning oyog'i ostida, mozor devori ichida. Keyinchalik Bahodir Yalangto'shning ikki qizi — Iqlimabonu va Oyibining qabrlari ham shu yerdan o'rin olgan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, “Bahodir Yalangto'sh” filmi orqali gavalantirayotgan bu shaxs nafaqat yirik davlat va jamoat arbobi, mohir sarkarda, balki ulkan bunyodkorlik ishlari tashabbuskori hamdir. Uning davridagi Samarqand arxitekturasiga va shaharsozligidagi noyob ifodalar besh asrga yaqin vaqt davomida kishilarni hayratlantirib kelmog'ga.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Shukrona

RA'NOXON AYA
HAJGA OTLANDI

Qishloq ayoliga ehtirom namunasi



Yurtimizga pishiqchilik mavsumi kirib keldi. Ayni pallada Farg'ona viloyati Bag'dod tumanidagi Xitoy mahallasiga kirib borsangiz, oq marvarid kabi oftobda toblanib pishgan tut shodalari, yoqutdek terilgan qo'qon giloslariyu endi rang kirib, oltindek tovlay boshlagan o'rikni ko'rib zavqlanib ketasiz. Har bir hovli ostonasidagi rayhonlaru jambillarning xush bo'yidan boshingiz aylanadi.

Mahallaning kayvoni momolaridan Ra'noxon aya Xalilovaning eshigidan asta mo'ralar ekanmiz, sarishta va fayzli hovli ayvonidagi so'rida jamuljam o'tirgan xonadon a'zolari darhol sergak tordidi. Mehmon kelsa, jonini ham to'shaydigan xalqimizning ajoyib udumlarini borda... Bir zumda dasturxonni hovlida pishgan mevalaru tandirda yopilgan qaymoqli non va somsalar bilan to'ldirishdi.

— Voy, o'zim aylanaylar, kela qolinglar. Allohga shukur, haj ziyoratiga ketayotganimni eshitib, barcha qadrdonlarim, tanishlarim birin-ketin kirib kelyapti. Siz, aziz mehmonlarning

Yaratganing mo'jizalariga guvoh bo'lar ekan. Davlatimiz rahbarining mendek qishloq ayoliga, o'zbek onasiga ehtromidan boshim ko'kka yetdi!

— Esimizda, onajon, — deydi ayaning qizi Diloromxon. — O'sha kuni “Bolalarim, nafaqat oyoq-qo'llarim, balki yuragim titrab ketyapti quvonganimdan, men qanday subhatlashar ekanman-a?” deb gapirilmay qolgandiz. Prezidentimiz bilan ko'rishish, gaplashish hammaga ham nasib qilavermaydi. Siz baxtli insonsiz!

— To'g'ri aytasizlar, o'sha kuni qattiq hayajonlanganimdan ko'nglimga tugib qo'rgan

— Esimizda, onajon, — deydi ayaning qizi Diloromxon. — O'sha kuni “Bolalarim, nafaqat oyoq-qo'llarim, balki yuragim titrab ketyapti quvonganimdan, men qanday subhatlashar ekanman-a?” deb gapirilmay qolgandiz. Prezidentimiz bilan ko'rishish, gaplashish hammaga ham nasib qilavermaydi. Siz baxtli insonsiz!

ham rizqingiz bor ekan. Birgalashib tamaddi qilib, subhatlashamiz-da, o'rgilaylar, — deya muhojamat qildi Ra'noxon aya.

— Ayajon, mahallangiz juda fayzli ekan...

— Ha, bolam, bu fayz odamlarimizning mehru oqibatidan, mehnatkashligidan... Mahalladoshlarimning barchasi turmushidan rozi. Ayniqsa, ayol-qizlarimizning dehqonchiligi, tadbirkorligi, hunarmandligi bilan hayotda o'z o'rniga ega bo'lib borayotganidan juda xursandman. Mahallamizda bo'sh o'tirgan biror ayol haqida eshitib qolsak, darhol kayvonlar birgalashib o'sha xonadonga borib subhatlashamiz, maslahat beramiz. Bugun mahalla tizimidagi o'zgarishlarni tushuntiramiz...

Ra'noxon aya bilan gaplashar ekanmiz, dasta gul tutgan qizlaru dasturxon ko'tarib olgan kelinlar momolar boshchiligida kirib keldi.

— Voy, Xizrni yo'qlasam bo'lar ekan. Endi siz haqiqizda muxbir qizlarimga gapirib berayotgan edim, — deya Ra'noxon aya ko'zi porlab ularga peshov chiqishga shoshildi. — Esingizdami, o'tgan yili uzum pishig'ida Prezidentimiz xonadonimizga tashrif buyurgan edi. O'shanda “Sizni o'z hisobimdan katta haj ziyoratga jo'nataman”, deganida quloqlarimga ishonmagan edim. Tush ko'ryapman deb o'yladim. Mana, Allohning karami bilan davlatimiz rahbarining va'dasi tush emasligini, bir-ikki kundan so'ng hajga yo'l olishimni his qilganim sayin quvonib ketyapman. Turmush o'rtog'im bilan to'rt qiz va bir o'g'lini tarbiyalab, voyaga yetkazdik. Halol mehnat va pok e'tiqod bilan yashagan inson

ko'p gaplarim yodimdan ko'tarilib qoldi. Davlatimiz rahbarining islohotlari tufayli yurdoshlarimiz, ayniqsa, farzandlarimiz, nabiralari bizdan ko'ra o'n barobar, yuz barobar yaxshi yashayotgani uchun minnatdorlik bildirmoqchi edim. Mana hozir bir nabiram Germaniyada o'qiyapti. Yana biri chet tilini yaxshi bilgani uchun xalqaro tanlovda g'olib bo'ldi. 25-iyunda chet elga sayohatga ketyapti. Nabiralari har bir yutug'ini, baxtdan chaqnagan ko'zini ko'rib, bugungi islohotlarning qanchalar odilona ekanidan xursand bo'laman. O'zbek xalqi o'z bilimi va salohiyati bilan dunyo maydoniga kirib borayotganidan dalolat emasmi bu? Dunyodagi ko'p insonlar borib, ezgu niyatini Yaratgandan so'raydigan muqaddas ziyoratgohda yurtimizga tinchlik va farovonlik, Prezidentimizga esa uzoq umr, mustahkam sog'liq, olamshumul islohotlariga bardavomlik, yurdoshlarimizga esa ayni g'animat kunlar qadriga yetib, birgalikda yangi O'zbekistonimizni qurish, mehnat qilish, ruhan yuksalish baxtini so'rayman!

Dono xalqimiz “Birniki mingga, mingniki tumanga”, deya bejiz ta'kidlamagan. Bugun dunyoni zir titratib turgan qay bir xavf, qay bir illatga nazar solmang, barchasi parokandalik, bir-birini ko'z qoraytiribmaslik tufayli sodir bo'layotganini anglaysiz. Shunday ekan, Ra'noxon aya duo qilganidek, birligimizga, ahilligimizga ko'z tegmasin!

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 1906. 44065 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ Bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 22:20 Topshirildi — 23:30